

ALISHER NAVOIYNING “NAZMUL JAVOHIR” ASARINING YARATILISH TARIXIGA BIR NAZAR…

Pardayeva Madinabonu

https://doi.org/10.5281/zenodo.23067285

Abstrakt : Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Nazmul- javohir asari yaratilishi bilan bog’liq ma’lumotlar keltiriladi. Asarning yozilishiga asos bo‘lgan manbalar tahlil etiladi. “Nasrul- laoliy” asarining kelib chiqishiga e’tibor qaratiladi.

Key words: Alisher Navoiy , “Nazmul-javohir”, “Nasrul- laoliy” , manba, tarix.

Alisher Navoiyning ko‘pgina qimmatli asarlari qatori “ Nazmul javohir“ asarining o‘rni ma’naviyat olamida o‘z ahamiyatiga ega. Bu asarda Shoirning diniy, falsafiy , axloqiy dunyoqarashi o‘z aksini topgan. Avvalo, biz bu asarning yaratilish tarixi bog‘liq ma’lumotlarni jamlab o‘rganishimiz kerak.

Hazrat Alisher Navoiyning “Nazmul javohir” asarida hazrat Alining (roziyallohu anhu) hikmatli so‘zlari sharhlangan. Milodiy X asrda Sharif Roziy to‘plagan sahobaning hikmatli so‘zlari “Nahjul balog‘a” deb nomlanadi. XI asrda “Nahjul balog‘a”ni yanada mukammallashtirgan olim Johiz (Amr ibn Bahr) asarni “Nasrul laoliy” (Qimmatbaho toshlarning sochilishi) deya nomlagan. Keyinchalik ushbu asarning ma’lum qismlarini Rashididdin Vatvot, Darvesh Ashraf Xiyoboniy fors tilida sharhlab, nazmga soladi. Alisher Navoiy hazrat Alining (roziyallohu anhu) qabri Balxda ekan, degan xabarlardan ilhomlanib, “Nasrul laoliy” asarini turk tilida ruboiy janrida sharhlaydi va uni “Nazmul javohir” deb nomlaydi. Hazrat Alining hikmatli so‘zlari « Nazmul-javohir » ga yetib kelgunga qadar uzoq yo‘lni bosib o‘tgan . Shuningdek, asrlar davomida Rashididdin Vatvot nusxasi ham turfa “tahrirlar ”ga uchragan . Uni qo‘liga olgan har bir muallif Vatvotga o‘zicha munosabat ko‘rsatgan. Malikushshuaro Bahor « Nazmul- javohir » tarkibidan joy olgan hikmatlarni Alisher Navoiyning o‘zi tanlab olgan degan fikrga shubha bilan qaraydi . S. G‘anieva esa: «Alisher Navoiy «Amir al-mo‘minin Hazrati Ali hikmatli so‘zlari majmuasidan 268 ta hikmatni saralab oladi va har birining mazmunini bir ruboiyda talqin etadi ».[1] -deydi. « Har birin to‘rt duri gavhar degil » maqolasida esa: « Asarda (« Nazmul-javohir » da) barcha avlodlar uchun dolzarb bo‘lgan , butun bir axloqiy tizimga daxldor masalalar bo‘yicha hikmatlar saralangani (ta’kid bizniki) ko‘zga tashlanadi»[2]- deya saralash ishining muallifi sifatida Alisher Navoiy ko‘rsatiladi. Nazarimizda, bunga Navoiyning «Nazmul-javohir» muqadimasidagi « Hazrat Amir «Nasrul –laoliy »si tarjimasi azimati qildim»,- degan fikrni turtki bo‘lgan ko‘rinadi.Umuman olganda, navoiyshunos olimaning ta’kidi to‘g‘ri. Biroq Hazrat Ali hikmatlarining saralanishi va « Nasrul – laoliy » tarzida atalishi muallifning o‘zi tomonidan amalga oshirilmaganligini qayd etmoqchimiz.

Hazrat Alining hikmatli so‘zlari X asr oxirlariga kelib, olim va shoir Sharif Ar - Roziy tomonidan « Nahjul – balog‘a » nomi bilan bir to‘plamga yig‘iladi.[3] Majmuadan o‘rin olgan

[1] Ғаниева С. Ҳар бирини тўрт дури гавҳар дегил //Имом ал-Бухорий сабоқлари ,2002,3-сон.210-212-бетлар.
[2] Ғаниева С. Ҳар бирини тўрт дурри гавхар дегил // Имом ал-Бухорий сабоқлари, 2001, 3-сон. 211-214-бетлар
[3] Фильштинский И.М. Арабская классическая литература. М. 1985

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

hikmatlarning g‘oyaviy sarchashmasi Qur’oni Karim va Hadisi Sharifdan quvvat olgan dunyoviy – diniy pandnomalardan iborat.

Xullas, Hazrat Ali hikmatlarining « Nazmul - javohir » gacha etib kelish yo‘lini quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

- hikmatlarning ilk namunalari «Kalomi Amir al-mo‘minin Ali» (arab tilida) tarzida nomlangan;
- Amr ibn Baxr al - Johiz (vafoti 868 milodiy) «Qisqa hikmatlar»ni ajratib olib saylanma tuzgan (arab tilida);
- Sharif Ar – Roziy (X asr) « Alining so‘zlari »ni to‘plab, «Nahjul – balog‘a» (arab tilida) nomi bilan yaxlit holga keltirgan – to‘plamdan 498 hikmat o‘rin olgan;
- Rashididdin Vatvot Al -Johiz a sarining asliyati (arabcha), tarjima va she’riy tafsiri (forscha) bilan « Nasrul –laoliy» yoki «Sad kalima» nomi bilan yangi to‘plam yaratgan.

Bu asarning yaratilish tarixini o‘rganish bevosita asarning yozilish sabablariga qiziqish uyg‘otadi. Avvalo, bu asarning yozilish sabablarini shoir asar muqaddimasida mufassal bayon qiladi. “Lojaramkim , ko‘praq avqotim Kalomulloh ishtig‘oli va aning tafsiri qiylu qoli bila o‘tar erdi. Yo ahodis daryosig‘a g‘avvoslik qilur erdim va ondin garonmoya gavharlar ilikka kivirur erdim, yo hazrat Amir so‘zlari ravzalari tamoshisig‘a qadam qo‘yar erdim. Har ravzada … visollaridin bahra topar erdim, bataxsis “Nasrul -laoliy “kim , ul hazratning viloyati daryosidin chiqqan lu’lulardir[4].

Ya’ni Shubhasizki, ko‘proq vaqtim Kalomullohni mutolaa qilish va uning so‘zlari mag‘zini chaqish bilan o‘tar edi. Yoki hadislar daryosida g‘avvoslik qilar edim, undan qimmatbaho gavharlar qo‘lga kiritar edim. Yoki hazrat Amir(Hazrat Ali) so‘zlari bog‘i tamoshosiga qadam qo‘yar edim . Ayniqsa, “Nasrul laoliy “ asari ul Hazratning viloyati daryosidan chiqqan qimmatbaho bir javhar edi, deb yozadi Navoiy. Bu lulularnikim, Arabshoh viloyatining bahri kafi sochibtur, forsi uslub bila nazm silkiga tortadur va ul injularnikim , Mag‘rib daryosi yaqosiga to‘kulubdur , intizom rishtasiga chekadur. Parishon xotirg‘a va oshufta zamirg‘a bu savdo ko‘p dag‘dag‘a solur erdikim, turkiy til bila men ham ul laolini orasta qilg‘aymen va bu muddao ko‘p taraddud etkurur erdikim, mo‘g‘ul uslubi bila men ham ul javohirni pirosta etgaymen.

Yuqoridagi parchadan anglashimizcha, [5] bu har biri gavharga teng qimmatbaho so‘zlar arab tilida bitilgandir va fors tilida ruboiy qilingani ham mavjud, shuningdek Navoiy turkiy tilda ham yozishni niyat qilgan. Ayni shu davrda Sulton Husayn Bayqaro bir risola yaratib unda ko‘p e’tiborini Navoiyga qaratadi. Bundan hayratlangan shoir o‘z hayajonini ruboiy orqali ham bayon etgan. Navoiy ijodiy faoliyating ravnaqi yo‘lida Husayn Boyqaroning ta’siri va e’tibori benihoyadir. Husayn Boyqaro ham ulug‘ shoirga do‘st sifatida ham, olim , faylasuf sifatida ham, shoir sifatida ham yuksak e’tiqod bilan qarar edi. Shoir Shoh e’tiboriga munosib javob berish haqida ko‘p mulohaza yuritadi: “Bu nav lulularkim , shoh boshining nisorig‘a loyiq bo‘lg‘ay tilarsen va andoq injularkim, shahanshoh farqining iysorig‘a muvofiq istarsen”. Demak, bu jumlalardan bilamizki, Navoiy Hazrat Alining “Nasrul-laoliy “ asaridagi hikmatlarni turkiy til bila nazm etishga kirishadi va buni shohga bag‘ishlashini lozim topadi. Asar muqaddimasida keltirilgan dalillar asarning yaratilish sabablaridan edi.

Navoiyning buyukligi ham shundaki, turkiy tilning imkoniyatlarini har bir asari orqali namoyish etadi. Biz shunday mazmundor arabiy hikmatlarni o‘z ona tilimizda ham mazmunini anglayapmiz.

---

[4] Алишер. Навоий, Асарлар, 20 томлик, 15- том, 1999

[5] Мамура Рашидова Назмул жавоҳир”нинг матний тадқиқоти Тошкент..Mumtoz so’z .2011

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер. Навоий, Асарлар, 20 томлик, 15- том, 1999
2. Мамура Рашидова Назмул жавоҳир”нинг матний тадқиқоти Тошкент..Mumtoz so‘z .2011
3. Ғаниева С. Ҳар бирини тўрт дури гавҳар дегил //Имом ал-Бухорий сабоқлари ,2002,3-сон.210-212-бетлар.
4. Ғаниева С. Ҳар бирини тўрт дурри гавхар дегил // Имом ал-Бухорий сабоқлари, 2001, 3-сон. 211-214-бетлар
5. Фильштинский И.М. Арабская классическая литература. М. 1985

© 2026 International Journal of Literature and Language Studies. All Rights Reserved.